

**BUYUK ALLOMA MAHMUD  
BUXORIYNING HAYOTI VA FAOLIYATINING  
MANBALARDA YORITILISHI**

*Xushvaktov Yusuf Baxtiyor o‘g‘li,*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Islomshunoslik va islom  
sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada faqih Burhonuddin Mahmud Buxoriy hayoti hamda u qoldirgan ilmiy merosi haqidagi manbalar yoritilgan. Shuningdek maqolaning asosiy qismida olimning nisbalari to‘g‘risida yozilgan asarlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sadrlar oilasi, Saraxs, Hidoya, Oli Moza, “al-Muhit”, Fors.

**Kirish.** Burhonuddin Mahmud Buxoriy ma’naviy merosi haqida ko‘plab manbalarda xabar berilgan bo‘lsa ham, uning shaxsiyati va Sharqda Oli Moza nomi bilan shuhrat qozongan oilasiga doir ma’lumotlar deyarli kam o‘rganilgan. Burhonuddin Mahmud Buxoriy garchi ha’eti davomida Buxoro va Samarqandda yashab ijod etgan bo‘lsa-da, allomaning o‘z asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga tayanilib, uning 551/1156 yili hozirgi Marg‘ilon shahrida tavallud topganligi aniqlandi.

**Asosiy qism.** Ko‘hna Buxoro o‘zining pokiza zaminida ko‘plab buyuk allomalarni kamol toptirgan. Ular qoldirgan asarlar necha asrlarki islom olamida muhim manba sifatida e’tirof etib kelinadi. Allomalarning sermahsul mehnati sabab bu shahar “Qubbatul Islom” (“Islom dini gumbazi”) degan sharafga munosib deb bilingan.

Buxoro madrasalarining yetuk vakillaridan biri, hanafiy mazhabi davomchisi Mahmud Buxoriy hisoblanadi. Uning to‘liq ismi Abulmahomid Mahmud ibn Muhammad ibn Dovud Lu’lu’iy Buxoriy Ifsanjy bo‘lib, o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan arboblardan bo‘lgan. U faqih, muhaddis, hofiz, mufasssir, mutakallim, adib va usulshunos olim sifatida dong taratgan.

Manbalarda alloma haqida ma’lumot unchalik ko‘p emas. Tarojim va taboqot singari kitoblarda uning tug‘ilgan yili, ustozlari, asarlari haqidagi qisqa ma’lumotlar bilan tanishish mumkin. Ularda qayd etilishicha, olim 627 hijriy (1230 milodiy) sanada Buxoroda tug‘ilgan va 671 hijriy (1272 milodiy) yil sanada mo‘g‘ullarning Buxoroga qilgan bosqinida qatl qilingan.

Shuningdek, Burhoniddin Mahmud Buxoriyning voyaga yetishi, fiqh ilmi sohasida mashhur bo‘lishida uning Buxoro va Samarqandda Oli Moza yoki Sadrlar nomi bilan mashhur bo‘lgan oilasi ham muhim rol o‘ynagan.

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning oilasi Buxoroga ko‘chib kelguniga qadar «Oli Moza», «Bani Umar ibn Marvon» nomlari bilan tanilgan. Bundan ko‘rinadiki,

sulola nasl tarafidan beshinchi xalifa deb e'tirof etilgan umaviy Umar ibn Abdulaziz ibn Marvonga (vaf. 719-y.) borib taqalishi haqidagi farazlar ham mavjud.

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning faqih sifatida tanilishida uning Samarqanddagi faoliyati diqqatlidir. Buxoroda Oli Moza oilasi bilan mahalliy olimlar va so'nggi Qoraxoniylarning xoni hisoblangan Qilich Arslonxon Usmon (1202-1212-yy.) o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi oilaning Samarqandga kelib o'rinishiga sabab bo'lgan.

Manbalar uning asarlari asosan, Samarqandda bitilgani, uning shoh asari bo'lmish «al-Muhit» asarining ilk nusxalari ham aynan shu shahar xattotlari tomonidan ko'chirilganligini tasdiqlaydi. Masalan, xattot Abulfath Abdulqohir ibn Abu Bakr ibn Ali Marg'inoniy 1262-65 yillarda Samarqanddagi Amiriya madrasasida «al-Muhit»ni kitob shakliga keltirgan.

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning ustozlari, asosan, o'z oilasidan chiqqan faqihlardir. Alloma asosiy bilimni o'z otasi Sadr Saiddan olgan. Tarixchi Tamimiy allomaning otasi Sadr Saidning ko'zga ko'ringan shogirdlaridan o'z o'g'li Mahmud va mashhur «al-Hidoya» asarining muallifi Burhoniddin Marg'inoniy ismini keltiradi.

Burhoniddin Mahmud Buxoriy «al-Muhit» asarida o'ziga zamondosh bo'lgan quyidagi movarounnahrlilik hanafiy olimlarni zikr qilib o'tgan. Ular amakivachchasi Muhammad ibn Husomuddin Sadr Shahid («Sadrul jahon» nomi bilan mashhur bo'lgan; vaf. 1170-y.), «Fatovo al-Qozixon» asari muallifi Hasan ibn Mansur O'zgandiy Farg'oniy («Faxruddin Qozixon» nomi bilan mashhur, vaf. 1196-y.), Abu Hafs Aqiliy (vaf. 1200-y.), Imom Burhoniddin Marg'inoniy (vaf. 1197-y.), Yusuf ibn Ahmad Najmuddin Xorazmiy (vaf. 1237-y.), Abu Bakr ibn Alouddin Kosoniy (vaf. 1191-y.), Ahmad ibn Said Hasiyriy (vaf. 1298 y.), «Fatovo az-zahiriya» asari muallifi Zahiruddin Kabir Ali ibn Abdulaziz Marg'inoniy (vaf. 1222-y.)dir.

Tarojim manbalarda Burhoniddin Mahmud Buxoriyning (vaf. 1124-y.) bobosi «Abu-s-Sudur», «sadrul-kabir», «burhonul-kabir», «burhonul-aimma», «sadrul-moza» kabi nomlar bilan keltiriladi. Kafaviy: «U forslardan edi, shuning uchun forscha gapirar edi. Fatvolarni ham fors va arab tillarida chiqarar edi», deb keltiradi. Biroq manbalarda Burhonul Kabir yaratgan ilmiy meros va uning shaxsiyatiga oid ma'lumotlar kam uchraydi. Uning Muhammad Shayboniy yaratgan «al-Jome' as-sag'ir» asariga yozgan sharhi haqida ma'lumot bor bo'lsa-da, bu sharh bizgacha yetib kelmagan. Burhonul Kabir Sulton Sanjarning opasiga uylangani manbalarda qayd qilingan.

Buxoroda «Sadr» va «Qozi al-quzot» mansabiga 1101-yilda ilk bor Burhoniddin Mahmud Buxoriyning bobosi Burhonul Kabir tayinlangan edi. Oli Moza oilasining Buxorodagi madaniyat, fan va ta'lim hamda fiqh ilmi rivojidadagi xizmatini ularning «Sikkat ad-dexqon» mahallasida «Xizonat al-kutub» kutubxonasini tashkil etishlari misolida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Ushbu kutubxonani boyitishda Burhonul Kabir, Sadr Shahid va uning ukasi Sadr Saidning xizmati katta bo'lgan. Ko'plab buxorolik

faqihlar o‘z asarlarini ushbu kutubxonadagi manbalardan foydalangan holda yozgan edilar.

Burhoniddin Mahmud Buxoriyning shoh asari bo‘lmish «al-Muhit» bir necha marta nashr etilgan. «Al-Muhit» asarining ilk yirik nashrini Ahmad Izzu Inoya (Qohira, 2003) har biri o‘rtacha 500-550 betdan iborat bo‘lgan o‘n jildlik kitob holida amalga oshirgan. «Al-Muhit»ning ikkinchi yirik nashri muallifi Abdulkarim Sami Jundiyy bo‘lib, u asarni to‘qqiz jildda (har bir jildi o‘rtacha 500–550-betni tashkil qiladi) nashrga bergan.

Ma‘lumki, mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng islom ilmlarining rivoji Usmoniylar davlatida kuzatildi va Istanbul shahri islom ilmlari markaziga aylantirildi. Mazkur hududda hanafiylik mazhabining izchil rivojlanib borishida movarounnahrlik faqihlar tomonidan yozilgan qator asarlarning ahamiyati ko‘lamli bo‘ldi. Jumladan, bugungi kunga kelib «al-Muhit» asarining birgina Turkiyadagi Boyazid, Sulaymoniya, Ko‘prulu kutubxonalarining o‘zida 66 ta qo‘lyozma nusxalari borligi fikrimizga dalil bo‘ladi. Ushbu qo‘lyozmalar turli hajmda bo‘lib, turli davrlarda xattotlar tomonidan ko‘chirib borilgan.

Oli Moza sulolasining Movarounnahr hanafiylik ilmi rivojida tutgan yuksak o‘rnini birgina Burhoniddin Mahmud Buxoriyning qoldirgan ilmiy merosi bilan ham isbot qilish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, XX asr boshlarigacha yozilgan hanafiy mazhabidagi fiqhiy asarlarning barchasida Oli Moza faqihlari asarlari va fatvolaridan keng foydalanilgan. Mustaqillik yillarida allomaning ilmiy merosi borasida tadqiqotlar qilindi.

Allomaning qabri qaerdaligi ma‘lum emas. Ba’zi manbalarda “Mahmud Buxoriy Mo‘g‘ul tatarlar bosqini paytida shahid bo‘lgan. Uning jasadi qatl qilinganlarga qo‘shib yo‘q qilib yuborilgan” deyilgan. Bu ma‘lumot uning qabri noma’lumligini anglatadi.

Olim marg‘inoniy fiqh maktabi davomchilaridan biridir. Ustozlarining aksariyati “Hidoya” asari muallifi Imom Marg‘inoniyga bevosita va bilvosita bog‘lanadi. U Imom Burhoniddin Zarnujiy, imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Qaziyniy, Imom Sirojuddin Qaziyniy, Imom Badriddin Kardariy, Imom Humayduddin Zarir, Hofizuddin Kabir Buxoriy singari ulamolardan dars olgan. Sanab o‘tilgan ustozlardan oxirgi to‘rttasi Burhonuddin Marg‘inoniyning shogirdi Shamsuddin Muhammad ibn Abdusattor Kardariyning shogirdlaridan hisoblanadi. Imom Zarnujiy esa to‘g‘ridan to‘g‘ri Imom Marg‘inoniyga shogird bo‘lgan.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Prof. Z.I. Munavvarov. O‘rta Osiyo olimlari qomusi. – T.: Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma’rifiy markazi nashriyoti, 2007.
2. Mahmud ibn sulaymon Hanafiy. Kitabul a’lamul axyor min fuqahai mazhubin no‘manil muxtar.

3. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. J. 3. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2008.
4. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. J. 3.– Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2008.
5. Mahmud ibn Sulaymon Hanafiy. Kitabul a'lamul axyor min fuqahai mazhubin no'manil muxtar. J.2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018.
6. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix al-umam va-lmuluk. – Bayrut: Dor al-fikr, 1399/1979.
7. Muhammad Said, Abdulquddus Hoshimiy. Risola fikr an-nazar. – Islomobod: al-Hidoya, 1970.

